



THE INFLUENCE OF COGNITIVE FEATURES ON THE ADAPTATION PROCESS IN PRIMARY GRADE CHILDREN

Jiyanberdiev Merojiddin Egamberdi oglu

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Annotation

This article analyzes the cognitive processes attention, memory, thinking of primary school students and their impact on their adaptation to school. The study highlights the relationship between the intellectual potential of students and their socio-psychological adaptation, and develops necessary methodological recommendations for teachers and parents. The results will serve to effectively organize the educational process and ensure the successful integration of children into the school environment.

Keywords: primary school students, cognitive characteristics, adaptation to school, attention, memory, thinking, perception, educational activity, psychological and pedagogical conditions, social environment, knowledge acquisition, adaptation process.

Anatotsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur) va ularning maktabga moslashuviga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning intellektual salohiyati va ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik yoritilib, pedagog va ota-onalar uchun zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish va bolalarning maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.



Kalit soʻzlar: boshlangʻich sinf oʻquvchilari, kognitiv xususiyatlar, maktabga moslashuv, diqqat, xotira, tafakkur, idrok, oʻquv faoliyati, psixologik-pedagogik sharoitlar, ijtimoiy muhit, bilim oʻzlashtirish, adaptatsiya jarayoni.

Аннотация

В данной статье анализируются когнитивные процессы (внимание, память, мышление) учащихся начальной школы и их влияние на адаптацию к школе. Исследование выявляет взаимосвязь между интеллектуальным потенциалом учащихся и их социально-психологической адаптацией, а также разрабатывает необходимые методические рекомендации для учителей и родителей. Результаты исследования послужат для эффективной организации образовательного процесса и обеспечения успешной интеграции детей в школьную среду.

Ключевые слова: Учащиеся начальной школы, когнитивные характеристики, адаптация к школе, внимание, память, мышление, восприятие, учебная деятельность, психолого-педагогические условия, социальная среда, приобретение знаний, процесс адаптации.

KIRISH.

Hozirgi kunda taʼlim tizimida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bola maktabga qadam qoʻyishi bilan uning hayotida yangi ijtimoiy muhit, yangi faoliyat turi va yangi talablar paydo boʻladi. Ushbu jarayonda bolaning psixologik va kognitiv xususiyatlari muhim rol oʻynaydi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur va idrok kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi oʻquvchilarning taʼlim jarayoniga tez va samarali moslashishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.



Boshlang‘ich sinf davri bolalarning aqliy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanib, bu davrda ularning bilish jarayonlari faol shakllanadi va rivojlanadi. Agar o‘quvchilarning kognitiv xususiyatlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, ular yangi bilimlarni o‘zlashtirishda, topshiriqlarni bajarishda hamda sinf jamoasiga moslashishda kamroq qiyinchiliklarga duch keladilar. Aksincha, kognitiv jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘quv faoliyatida turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlarini o‘rganish, ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoniga ta‘sirini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf bolalarining kognitiv xususiyatlari va ularning moslashuv jarayoniga ta‘sirini tahlil qilish hamda bu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishi hamda ularning ta‘lim muhitiga moslashuv jarayoni psixologiya va pedagogika fanlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng o‘rganilgan. Ushbu masala ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Bolalarning kognitiv rivojlanishi masalasi mashhur psixolog olimlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Xususan, shveytsariyalik psixolog Jean Piaget bolalarning intellektual rivojlanish bosqichlari nazariyasini ishlab chiqib, boshlang‘ich yoshdagi bolalarda tafakkur va bilish jarayonlarining shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab bergan. Shuningdek, rus psixologi Lev Vygotsky bolalarning kognitiv rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta‘limning muhim rol o‘ynashini ta‘kidlab, “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasini ilgari surgan. Uning tadqiqotlarida o‘qituvchi va



kattalarning rahbarligi ostida bolaning bilish faoliyati samarali rivojlanishi ko‘rsatib berilgan.

Bundan tashqari, A.N. Leontyev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin kabi olimlar faoliyat nazariyasi, tafakkur jarayonlari hamda bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning ilmiy ishlari boshlang‘ich yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va o‘quv faoliyatini tushinishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham bolalarning psixologik rivojlanishi, kognitiv jarayonlari va ta‘limga moslashuv masalalari keng o‘rganilgan. Mahalliy tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqat, xotira, tafakkur kabi kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish hamda ularning o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli moslashishini ta‘minlashning pedagogik va psixologik omillari tahlil qilingan.

Shunga qaramay, zamonaviy ta‘lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlari va ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoniga ta‘sirini kompleks tarzda o‘rganish, ushbu jarayonni samarali tashkil etishning yangi pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlari va ularning ta‘lim muhitiga moslashuv jarayonini o‘rganish psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bolalarning bilish jarayonlari, aqliy rivojlanish darajasi hamda ta‘lim jarayoniga moslashuv mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi.



Xorijiy psixolog olimlardan J. Piaje bolalarning intellektual rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilib, 7–11 yosh oralig‘idagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichiga o‘tishini ta’kidlagan. Bu bosqichda bolalarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonini o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

L.S. Vygotskiy esa bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, bolalarning bilish faoliyati kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikda rivojlanadi. Ayniqsa, “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida pedagogik yordamning muhimligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

vojlanishi faoliyat jarayonida shakllanishini ta’kidlagan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quv faoliyati boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turiga muhim davr sifatida baholagan va bu davrda motivatsiya, tafakkur hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi muhim ekanligini ta’kidlagan.

A.R. Luriya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa bolalarning nutqi, xotirasi va tafakkuri o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Uning fikricha, boshlang‘ich sinf yoshida nutqning rivojlanishi bolalarning tafakkur faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishi, bilish jarayonlari va o‘quv faoliyatini shakllantirish



masalalari keng o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotlarda o'quvchilarning diqqatini rivojlantirish, xotira jarayonlarini mustahkamlash, tafakkur faolligini oshirish hamda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ularning maktab muhitiga moslashuvini ta'minlash muhimligi ta'kidlangan.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga moslashuviga ta'sir etuvchi omillar sifatida psixologik tayyorgarlik, kognitiv rivojlanish darajasi, ijtimoiy muhit, o'qituvchi bilan o'zaro munosabat hamda oila muhitining ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Bu omillar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishini oshirish, bilimlarni samarali o'zlashtirish va sinf jamoasiga moslashish jarayonini yengillashtiradi.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda bu jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT OB'EKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Mazkur tadqiqotning ob'ekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv xususiyatlari hamda ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoni tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat, xotira, tafakkur va idrok kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasi hamda ushbu jarayonlarning o'quv faoliyatiga moslashuvga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanish xususiyatlari, ularning o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Shuningdek, o'quvchilarning bilish jarayonlari va maktab muhitiga moslashuvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.



Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik va psixologik metodlardan foydalanildi. Jumladan:

Nazariy metodlar – mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, psixologik va pedagogik manbalarni o‘rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirish.

Kuzatish metodi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars jarayonidagi faoliyati, diqqat darajasi va o‘quv jarayoniga moslashuv xususiyatlarini kuzatish.

Suhbat metodi – o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalar bilan suhbat o‘tkazish orqali bolalarning o‘quv faoliyatiga munosabatini aniqlash.

So‘rovnoma metodi – o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga moslashuv darajasi va kognitiv faoliyatiga oid ma’lumotlarni yig‘ish.

Tahlil va taqqoslash metodlari – olingan natijalarni tahlil qilish hamda ularni o‘zaro solishtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarish. Ushbu metodlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlari hamda ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoniga ta’siri har tomonlama o‘rganildi va ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar shakllantirildi.

OLINGAN NATIJALAR ULARNING TAHLILI

Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlari hamda ularning maktab muhitiga moslashuv darajasi o‘rganildi. Kuzatish, suhbat va so‘rovnoma metodlari asosida o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlarining rivojlanish darajasi hamda ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kognitiv jarayonlari yaxshi rivojlangan o‘quvchilar maktab muhitiga tezroq moslashadi va o‘quv faoliyatida faolroq ishtirok etadi. Bunday o‘quvchilar topshiriqlarni tez va to‘g‘ri bajarish, yangi bilimlarni oson o‘zlashtirish hamda o‘qituvchi va tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish



qobiliyatiga ega bo'lishi kuzatildi. Ayniqsa, diqqatning barqarorligi va xotiraning rivojlanganligi o'quv materiallarini eslab qolish va tushunishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim o'quvchilarda kognitiv jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning o'quv jarayoniga moslashuviga ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi kuzatildi. Masalan, diqqatning tez chalg'ishi, xotiraning sustligi yoki tafakkur jarayonining sekin rivojlanishi o'quv topshiriqlarini bajarishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligiga hamda o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanish darajasi ularning maktab muhitiga moslashuv jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. O'qituvchining to'g'ri pedagogik yondashuvi, o'quv jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanish hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ularning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, oila muhiti va ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi ham o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va maktabga moslashuv jarayonida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan bolalarning o'qishga qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish hamda qulay psixologik muhit yaratish bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv xususiyatlari ularning o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu sababli ta'lim jarayonida



o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qiladigan bo‘lsak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv xususiyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok) ularning maktabga moslashuvi va o‘quv samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bilish jarayonlari rivojlangan bolalar o‘quv topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarib, ijtimoiy muhitga oson integratsiyalashadi. Aksincha, kognitiv rivojlanishdagi yetishmovchiliklar o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, individual yondashuvni joriy etish va oila bilan hamkorlikda qulay psixologik muhit yaratish bolalarning maktabga adaptatsiyasini yengillashtirish hamda ta‘lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

- 1.Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi asoslari. – Moskva: Akademiya, 1989.
- 2.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
- 3.G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
- 4.Nishonova Z.T. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2014.
- 5.Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Makhmudov Salimjan Uralovich, Abdurashidov Og‘abek Shodiyor og‘li - The Importance of the Motivational Process in Different Periods of Personality Development. International Journal of Integrative and Modern Medicine
8. Maxmudov S.U. Kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashuviga tasir etuvchi omillar. Kasb-hunar ta‘limi №11, 2024



9. Maxmudov Salimjon Uralovich KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA RIVOJLANISHNING IJTIMOY SHART-SHAROITLARI. Journal of Pedagogy and psychology in modern education , Vol. 4 No.1 (2024)
10. Maxmudov Salimjon Uralovich, Jumaboyeva Sarvinoz Olimjon qizi -OLIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR VA O'QITUVCHILAR MAS'ULIYATI: BA'ZI MUAMMO VA MUNOZARALAR. Journal of Pedagogy and psychology in modern education , Vol. 4 No.(2024)
11. Makhmudov Salim Uralovich - Possibilities Of Using Electronic Literature in The Educational Process. Progress Annals: Journal of Progressive Research Volume 2, Issue 2, February 2024.
12. Maxmudov Salimjon Uralovich - O'zaro bir birini anglash shaxslararo munosabatlarning fenomeni sifatida. www.pedagoglar.uz 33-son 2-to'plam_ iyul_2022.
13. С.Махмудов - ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА АЛ-БУХОРИЙ ХАДИСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ V<https://doi.org/10.5281/zenodo.7339029>olume 2
14. Maxmudov Salim Uralovichning O`ZARO BIR-BIRINI ANGLASH SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING FENOMENI SIFATIDA International Conference on Developments in Education <https://econferencezone.org> April 20th 2022.
15. Maxmudov Salimjon Uralovich. (2022). PEDAGOGICHESKIE POUCHENIA MYSLITELEY O VOSPITANII MOLOYoJI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 550–553. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337692>me 2 Issue 12, November 2022 ISSN



16. Salimjon Maxmudov. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Ta’lim, fan va innovatsiya. 2-son, 2024-yil.